



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI
QIBRAY TUMANI XALQ TA'LIMI BO'LIMI

45-umumiy o`rta ta`lim maktabining boshlang`ich sinf

o`qituvchisi Baynazarova Dilnozaning

Fe'l - so`z turkumi mavzusida dars ishlanmasi.



Qibray -2013

Sana:

Fan: ona-tili.

Sinf: 4-sinf.

Mavzu: Fe'l so'z turkumi.

Darsning maqsadi:

1. Ta'limiy maqsadi

a) So'z turkumlaridan fe'l haqida keng qamrovli bilim berish, bilim, ko'nikma malaka xosil qilish.

b) O'quvchilarning bilish darajasini bir-biri bilan taqqoslash.

d) Ona-tilini hurmat qilgan holda chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish.

2. Tarbiyaviy maqsad:

a) Ajdodlar merosiga sodiq bo'lib, vatanimizga munosib farzand bo'lish.

b)Odob-axloq qoidalariga rioya etish, o'zgar fikrini aniqlash, hurmat qilishga o'rgatish

d)O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.

3.Rivojlantiruvchi maqsad.

Bilim ko'nikma malakasini rivojlantirish,tez fikrlay olish,hozirjavobligini oshirish.

Darsing turi: Yangi bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars usuli: Aqliy hujum, klaster,beshinchisi ortiqcha metodi, nima qiladi? metodi, baxtli tasodif metodi.

Darsning jihozi: Darslik, kompyuter,monitor,tarqatma kartochkalar,

Dars shiori:" *O'rgan –o'rgat shiori*

Boshlang'ichdir poydevori.

Biz buyuk kelajakni ozod va farovon hayotni qurish maqsadida matonat va qattiylik bilan mexnat qilamiz. (I.A.Karimov)

Darsning texnologik xaritasi

T/r	Darsning borish bosqichlari	Darsda foydalaniladigan metodlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	<i>Savol-javob</i>	5daqiq
2	O'tilgan mavzuni so'rash,uy vazifasini tekshirish.	<i>Baxtli tasodif metodi. Test usuli.</i>	10daqiq
3	Yangi mavzu bayoni.	<i>Klaster metodi,</i>	15daqiq
4	Yangi mavzu mustaxkamlash	<i>Nima qiladi? o'yini beshinchisi ortiqcha metodi.</i>	10daqiq
5	Uy vazifa berish.	<i>Topshiriq berish, tushuntirish.</i>	3 daqiq
6	Baxolash va rag'batlantirish.	<i>Ball qo'yish, Taqdirlash.</i>	2daqiq

Darsning borishi:

1.Tashkiliy qism:

O'quvchilar darsga hozirligi tekshiriladi. **“Tartib posboni “va” orasta qiz “** hisobot beradi. Bahor fasli Haqida ma'lumot beriladi

Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.



1.2013- yil qanday yil deb nomlandi?

2.Obod turmush deganda nimani tushunasiz?


3.To'kin va farovon hayot qurib yashash uchun nimalar qilmog'imiz kerak.?

4.Chet tilini o'rganish bizga nima uchun kerak?

2.O'tilgan mavzuni mustaxkamlash va uy vazifani tekshirish.



Baxtli tasodif metodidan foydalanib o'quvchilarga 6 ta konvert ko'rsatiladi, 1 ta konvert ichida **5* omad** yozilgan bo'ladi, o'quvchilar konvertdagi savollarga birin ketin javob berishadi va kimga baxtli tasodif tushsa sinf chapak chaladi, 5* qoyiladi.



Savollar.

1-savol ; Kishilik olmoshlarini ayting?

2-savol: Kishlik olmoshlari qanday qo'shimchalar bilan qo'llaniladi.

3-savol: Kishilik olmoshlari gapda qaysi bo'lak vazifasida keladi.

4-savol: Sifat yasovchi qo'shimchalarni ayting?

5-savol: Qanday sifatlar ma'no turlarini bilasiz?

6-savol: Shaxs olmoshlarini ayting?

Test aytiladi oquvchilar javoblarini yozib berishadi.

1-test:Qaysi kishilik olmoshlari bitta shaxni bildiradi?

A)Biz ,Siz ,Ular.olmoshlari B)Men, Sen ,U olmoshlari

D)U,Ular.

2-test :Qaysi kishilik olmoshlari ko'p kishini bildiradi?

A) Men, Sen ,U olmoshlari B) U,Ular. D)Biz ,Siz ,Ular.olmoshlari

3-test:Kishilik olmoshlari qanday so'roqqa javob bo'ladi?

A) Kimlar? Nimalar? B)Kimlar? Nima qildi?

D) Kim? Kimlar?

Yangi mavzu bayoni:

O'qituvchi;

Juft savolim bor sizga,Ham o'g'ilga ham qizga.



Nima qildi ? –Gulnoza?

O'quvchi; -Gullar ekdi rang –barang.

O'qituvchi:Nima qilyapti? –Doston?

O'quvchi:- Chizyapti bog'u –bo'ston.

O'qituvchi;

Barakalla ,do'stlarim

Uch zamonga sardor u,

Sochilgan yulduzlarim

Javobingizga borman,



Doimo sizga zorman.


Uch zamonga sardor u,

Harakat u, halovat u,

Keldi,yozdi,o'qiydi.

Ishladi ham to'qidi.

Qoida; Narsa va shaxsning harakatini bildirib nima qildi?nima qilyapti?nima qilmoqchi?so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar **fe'l** deyiladi.



375-mashq Matnni o'qib ajratilgan so'zlarga so'roq bering.

Yashashardi-----Nima qiladi?

Yig'ladi----- Nima qiladi?

Og'riyapti----- Nima qilyapti?

Tepdi-----Nima qildi?


Achindi----- Nima qildi?

Qiynayverdi-----Nima qildi?

Yirtildi-----Nima qildi?


Qochishdi-----Nima qildi?

***Mashqdagi so'zlarni ingliz tilida tarjimasini yozib
olamiz***



Mashq yuzasidan lug'at ishi o'tkaziladi.

Lug'at ishi



O'quvchilar biz sizlar bilan odob-axloq qoidalarini o'rganib tanishib chiqqan edik to'g'rimi?

Farobiy bobomiz- **«Daraxtning yetukligi uning mo'l - ko'l va shirin - shakar, sharbatga to'la mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloq bilan yakunlanadi»** - deydi. Har doim yaxshi va odobli bola bo'lishga harakat qiling

376-mashqni ko'chiring fe'llarning tagiga chizing.

Yangi mavzu mustaxkamlash.

“Beshinchisi ortiqcha”metodi

So'z turkumlaridan qatordagi bitta ortiqchasini toping.

- 1 Maktab, kitob, kundalik, **keldi**, bola. (Ot)
- 2 Chiroyli, moviy, qizil, **ikkita**, semiz. (Sifat)
- 3 **O'quvchi**, to'rtta, beshinchi, Yuzta, o'nta. (Son)
- 4 Bordi, keldi, o'tirdi, uxladi, **Novvoy**.

Nima qiladi? o'yini

1	Paxtazorda	paxta	ochiladi
2	Gulzorda		
3	Xiyobonda		
4	Maktabda		
5	Kutubxonada		

Uyga topshiriq

*Kundalikni endi ochaylik
Uyga vazifalarni yozaylik
Ona-tilidan olgan bilimni,
Unutmasdan esta saqlaylik.*

377-mashq she'rni ifodali o'qing,

ko'chiring. So'roqlar yordamida fe'llarni aniqlab, tagiga chizing.

6.O'quvchilarni baholash va rag'batlantirish.

O'quvchilar quyidagicha baholanadi





DARS YAKUNLANDI

RAXMAT

